XALQ DEPUTATLARI MIRZACHO‘L TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 30-may VI-62-74-3-51-K/24 Mirzacho‘l tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-son farmonida berilgan topshiriqlar ijrosi hamda tumanda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman Ekologiya atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarish inspeksiyasi hisoboti to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5863-son farmonining 8-bandiga asosan, tuman Ekologiya atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi boshlig‘i v.b M.O‘roqboyevning sohada olib borilayotgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi yig‘ilishida eshitilganligi va ko‘rib chiqilganligini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5863-son farmonining 8-bandiga asosan, tuman Ekologiya atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi boshlig‘i v.b M.O‘roqboyevning sohada olib borilayotgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi yig‘ilishida eshitilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Ekologiya atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi boshlig‘i v.b (M.O‘roqboyev), tuman hokimining o‘rinbosarlari va taalluqliligi bo‘yicha mutasaddi tashkilot va korxonalarga:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalar ijrosini to‘liq va sifatli qilib bajarilishini ta’minlash;

aholi tomonidan chiqarilayotgan chiqindilarni olib tashlash yuzasidan alohida chora-tadbir rejasi ishlab chiqib har bir hududga alohida texnika va qo‘shimcha ishchi kuchi ajratish chorasi ko‘rilsin;

aholi hududlarida hosil bo‘lgan chiqindilarni ikki hafta muddat ichida "Toza hudud" davlat unitar korxonasi tuman filiali bilan hamkorlikda bartaraf etish choralarini ko‘rish;

mahalla fuqarolar yig‘inlari huzuridagi jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish komissiyalari faoliyatini samaradorligini oshirish;

“Yashil makon” umummilliy loyihasi asosida ekilgan daraxt va butalarni muhofaza qilish hamda yashil maydonlarni kengaytirish borasida tizimli choralar amalga oshirish;

joylarda olib borilayotgan qurilish ishlari daraxtlarning noqonuniy kesilishining oldini olish bo‘yicha amaliy tadbirlar rejasini ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida joylarda nazorat tadbirlarini olib borilishi kuchaytirilib, qonun buzilish sodir etilishini oldini olish bo‘yicha tushuntirish va profilaktika ishlari olib borish, aniqlangan qonunbuzilish holatlari yuzasidan belgilangan tartibda huquqbuzarlarga nisbatan keskin choralar qo‘llash;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-46-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida tuman hududlarida 2023-yil kuz mavsumida manzarali, mevali daraxt va butalar ko‘chatlari ekilishini ta’minlash;

joriy yil kuz va keyingi yil bahor mavsumida ekilgan tumandagi barcha daraxtlarni nobud bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun barcha chora-tadbirlarni ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga:

mazkur qarorda belgilangan vazifalarni bajarishga mas’ul bo‘lgan tegishli tashkilotlar tomonidan olib borilayotgan ishlar ustidan deputatlik nazorati o‘rnatish;

chiqindi poligonida sanitar-ekologik holatni yaxshilanishi yuzasidan deputatlik nazoratini ta’minlanishiga erishish va hamkorlikda amaliy ishlarni olib borish;

o‘z saylov okruglarida aholini ekologik madaniyatini oshirish yuzasidan keng targ‘ibot ishlarini amalga oshirish, mazkur yo‘nalishda qabul qilinayotgan me’yoriy hujjatlarni mazmun mohiyatini tushuntirish vazifasi yuklatilsin.

4. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan har chorak yakunida xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot (hisobot) kiritib borilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (J.Axmedov) hamda Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi (Q.Mamatov) zimmalariga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi  Q.ABDUKODIROV